

# TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

«Tasdiqlayman»

Dekan dots. Gulamov A.E. \_\_\_\_\_

« 17 » декабрь 2015y.

## DIPLOM LOYIHASIGA TOPSHIRIQ

Kafedra \_\_\_\_\_ «Ipak va yigirish texnologiyasi» \_\_\_\_\_

Kafedra mudiri dots. Fayzullaev Sh.R. \_\_\_\_\_

(F.I.Sh va imzosi)

Rahbar dots. Matismailov S.L. \_\_\_\_\_

(F.I.Sh va imzosi)

Topshiriq bajarishga qabul qilindi \_\_\_\_\_ 18.12.2015 y.

(sana)

Talaba \_\_\_\_\_ imzosi \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ 5320900- «Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi» \_\_\_\_\_

(ta'lim yo'nalishi)

### **Diplom loyihasini tayyorlash bo'yicha topshiriq**

Talaba \_\_\_\_\_ **Abdurasulov Odiljon Shermatovich** \_\_\_\_\_

1. Loyiha mavzusi: **1314 art. Gazlamaning arqoq ipi ishlab chiqarish uchun, "Truetzchler" firmasi uskunalari bilan jihozlangan, quvvati 500 kg ip bo'lgan yigirish korxonasining texnologik loyihasini ishlab chiqish**

institut rektorining 2015 yil «12» 12 № 453-T -sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

2. Tugallangan diplom loyihasini himoya qilish muddati \_\_\_\_\_ 20.05.2016 y \_\_\_\_\_

3. Loyiha bo'yicha dastlabki ma'lumotlar \_\_\_\_\_

---

---

---

4. Diplom loyihasida bajariladigan bo'limlar ro'yxati:

A) Texnologik

qism \_\_\_\_\_

B) Maxsus

qism \_\_\_\_\_

V) Mehnat muxofazasi va ekologiya

qism \_\_\_\_\_

G) Iqtisodiy

qism \_\_\_\_\_

5. Ko'rsatilishi shart bo'lgan chizma-geometrik materiallar ro'yhati:

1. Uskunalar joylashuvi; 2. Yigirishning qisqacha rejasi; 3. Maxsus

qism; \_\_\_\_\_ 4. Texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari.

---

6. Loyihaning tegishli bo'limlar bo'yicha konsultantlari Texnologik va  
maxsus qismlar-dots. Matismailov S.L.; Mehnat muxofazasi va ekologiya  
qism- prof. G'aniyev T.A.; Iqtisodiy qism – katta o'qit. Akromova  
R.T.

7. Topshiriq berilgan sana

18.12.2015 y

# **TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

---

## **5320900- «Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi» (to'qimachilik sanoati)**

bakalavriatura ta'lim yo'nalishlari bo'yicha

### **DIPLOM LOYIHASI**

**Mavzu: 1314 art. Gazlamaning arqoq ipi ishlab chiqarish uchun, “Truetzchler” firmasi uskunalari bilan jihozlangan, quvvati 500 kg ip bo'lgan yigirish korxonasining texnologik loyihasi ishlab chiqish**

Talaba Abdurasulov Odiljon Shermatovich

Fakultet TST guruh 4a-12

Konsultantlar:

1. Kirish dots. Matismailov S.L.  
(DL tarkibiy qismi, konsultantning F.I.Sh., sana va imzo)

2. Texnologik qism, dots. Matismailov S.L.  
(DL tarkibiy qismi, konsultantning F.I.Sh., sana va imzo)

3. Maxsus qism dots. Matismailov S.L.  
(DL tarkibiy qismi, konsultantning F.I.Sh., sana va imzo)

4. Mehnat muxofazasi va ekologiya qism prof.G'aniyev T.A.  
(DLI tarkibiy qismi, konsultantning F.I.Sh., sana va imzo)

5. Iqtisodiy qism katta o'qituvchi Akromova R.T.  
(DL tarkibiy qismi, konsultantning F.I.Sh., sana va imzo)

Rahbar: dotsent Matismailov S.L.

Kafedra mudiri: dots. Fayzullaev Sh.R.

Toshkent – 2016 yil

## MUNDARIJA

|                                                                                                       |           |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|
| <b>Kirish .....</b>                                                                                   | <b>4</b>  |
| <b>I. TEXNOLOGIYA QISM .....</b>                                                                      | <b>7</b>  |
| 1.1 Qurilish nuqtasini tanlash va asoslash .....                                                      | 7         |
| 1.2 Gazlama tavsifi .....                                                                             | 10        |
| 1.3 Hom ashyo tanlash va asoslash .....                                                               | 11        |
| 1.4 Yigirish sistemasini tanlash .....                                                                | 14        |
| 1.5 Yigirish rejasini tanlash va asoslash .....                                                       | 17        |
| 1.6 O'timlar bo'yicha chiqayotgan mahsulot chiziqliy zichligi va cho'zish<br>miqdorini asoslash ..... | 18        |
| 1.7 Pilik va ipdagi buramlar sonini asoslash .....                                                    | 19        |
| 1.8 O'timlar bo'yicha chiqaruvchi organlar tezligini asoslash.....                                    | 20        |
| 1.9 O'timlar bo'yicha mashinalar nazariy unumdorligini hisoblash .....                                | 22        |
| 1.10 O'timlar bo'yicha mashinalar unumdorligini hisoblash .....                                       | 24        |
| 1.11 O'timlar bo'yicha pakovkalar parametrlarini hisoblash .....                                      | 26        |
| 1.12 Soatbay vazifasini aniqlash .....                                                                | 30        |
| 1.13 Korxonaning yordamchi bo'limlari .....                                                           | 37        |
| <b>II. MAXSUS QISM .....</b>                                                                          | <b>43</b> |
| 2.1 Qo'shiloq ip yigirish usuli .....                                                                 | 43        |
| <b>III. MEHNAT MUHOFAZASI VA EKOLOGIYA QISMI</b>                                                      | <b>48</b> |
| 3.1 Loyihalanayotgan korxonada mavjud xavflar va zararli omillar ....                                 | 48        |
| <b>IV. IQTISODIY QISM .....</b>                                                                       | <b>54</b> |
| 4.1 Yigiruv sexini ishlab chiqarish dasturi hisobi .....                                              | 57        |
| 4.2 Mehnat bo'yicha texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar .....                                             | 60        |
| 4.3 Mahsulot tannarxini hisoblash .....                                                               | 62        |
| 4.4 Yigiruv korxonasining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar .....                                       | 62        |
| <b>XULOSA VA TAKLIFLAR .....</b>                                                                      | <b>63</b> |

**«Biz qudratli to'qimachilik va engil sanoatni yaratishimiz kerak. Hamma taraqqiy etgan sivilizatsiyalashgan davlatlar singari xom-ashyo – paxtani emas, tayyor mahsulotni sotishimiz zarur.»**

**I.A.Karimov**

## **Kirish**

O'zbekiston yengil sanoat kompleksini vujudga keltirish va rivojlantirishda to'qimachilik sanoati katta o'rin tutadi. To'qimachilik sanoatini modernizatsiyalashda tolalarni yigirishning zamonaviy, jahon andozalari talablariga javob beradigan texnologik jihozlarning tuzilishi, imkoniyatlari, takomillashtirish yo'nalishlari, ishlab chiqarishni tashkil etish va mahsulot sifatini ta'minlash, nazorat qilishda yangi texnikani joriy etish asosiy vazifadir. Yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishda ilg'or texnologiya va texnikani joriy etish muhim omil hisoblanadi.

2014 yilda mahsulot eksporti bir mlr.AQSh dollarini tashkil etdi. 45 ta mamlakat bozorlari o'zlashtirildi, jumladan, Brazilya, Italiya, Chexya, Ispaniya, Kolumbiya, Fillipin, Marokko, MDH va Osiyo mamlakatlarida korxona-eksportyorlarning dillerlik bo'limlarini tashkil etadi. Kompaniya eksportida eng katta ulushni paxta ipi tashkil etib, u 61% ni, tayyor mahsulotlar 26% ni, ip gazlama 4% ni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 4 mart 2015 yildagi “ 2015-2019 yillar uchun tarkibiy islohatlar, modernizatsiya qilish va ishlab chiqarishni diversifikatsiya chora-tadbirlari dasturi to'g'risida”gi PQ-4707 Qarori ga muvofiq 2015-2019 yillarda ishlab chiqarish sanoatini tarkibiy islohatlar qilish, moderinizatsiya va diversifikatsiyalash bo'yicha istiqbolli yo'lanishlari, shu jumladan mahalliy xom ashyoni chuqur qayta ishlash asosida to'qimachilik va poyavzal sanoati tovar tarkibini, johon va mahalliy bozorlarda raqobatbardosh tayyor va yarim mahsulotlarni, xususan, bo'yalgan ip, matolar, ishlov berilgan

charm, trikotaj, tikuv, poyabzal va charm mahsulotlarini yaxshilash masalalari belgilandi[1].

Birinchi vazifa, ya'ni paxta tolasini qayta ishlash hajmini oshirish borasida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Paxta tolasini sotish hajmi yildan yilga kamayib, uni qayta ishlash hajmi oshib bormoqda. Yaqin kelajakda (2019 yilda) paxta tolasini qayta ishlash hajmi 70% ga yetkazilishi rejalashtirilga. Bunday ulkan vazifani amalga oshirish uchun yangi korxonalar ishga tushuriladi, mavjud korxonalarning bir qismi modernizatsiya qilinadi va qolganlarini modernizatsiya qilish ishlari davom ettirilib, korxonalar qayta jihozlanmoqda. Asosiy maqsad ishlab chiqariladigan tayyor mahsulotning raqobatbardoshligini ta'minlash hamda jahon bozorida egallayotgan o'rnini mustahkamlashdan iborat. Shuni ta'kidlash kerakki, mustaqillikning dastlabki yillarida to'qimachilik korxonalarida, xususan yigirish korxonalarining ayrimlarida qisman avval ishlatilgan mashinalar o'rnatilgan bo'lsa, keyinchalikbu holatga barham berilib, jihozlarning faqat eng so'nggi rusumdagilari keltirilib o'rnatildi. Natijada misli ko'rilmagan yutuqlarga erishilmoqda.

To'qimachilik sanoati rivojlanishida alohida e'tibor mahsulot assortimentiga qaratilmoqda. Masalan, "Asakatekstil" MchJda quvvati 3000tonna bo'lgan bo'yalgan ip ishlab chiqaruvchi korxona, "Medex Textile" xorijiy korxonada yiliga 2000 tonna paxta va po'iester aralash ip olish, "Osborn tekstil" MchJda xorijiy korxonada yiliga 3500 tonna melanj ip, qo'shma korxonasida esa kompakt ip tayyorlash o'zlashtirildi.

Yaqinda Shvetsariya Jahon iqtisodiyoti forumida "World Economic Forum" iqtisodiyoti eng tez rivojlangan mamlakatlar reytingi e'lon qilindi. Jahon bankining "Global iqtisodiyot taraqiyoti" pragnoz asosida tayyorlangan mazkur ma'lumotda 2014 yildan 2017 yilgacha bo'lgan davrda yillik o'sish darajasi eng yuqori bo'lgan davrlarlar orasida O'zbekiston 5- o'rinda qayt etilgani albatta ko'p narsadan dalolat beradi [2].

Shundan Xitoy, AQSh, Italiya, Germaniya, Shvetsariya, Tyrkiya, Hindiston, Koreya Respublikasi va boshqa mamlakatlarfirmalari bilan ip gazlama ishlab chiqaradigan yangi qo'shma korxonalar tashkil etilmoqda.

### **Mavzuning dolzarbligi:**

Loyiha ishining "1413 art. gazlamaning tanda ipi ishlab chiqarish uchun, «Truetzschler» firmasi uskunalari bilan jihozlangan, quvvati 500 kg/s ip bo'lgan yigirish korxonasining texnologik ko'rsatkichlari loyixalash" mavzusi yuqori texnologiyalarga asoslanganligi, jahon bozori talablariga javob beradigan raqobatbardosh ip yigirish masalalarini qamrab olganligi uchun dolzarb hisoblanadi.

### **Diplom loyiha ishining asosiy maqsadi:**

Tanlangan tolali aralashmadan Uster Ctatistiss 2013 me'zonlariga mos yigirilgan ip ishlab chiqarish uchun texnologik uskunalarni tanlash, yigirish rejasi parametrlarini hisoblash va asoslash.

### **Diplom loyiha ishining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:**

1. Berilgan assortimentdagi gazlamaning ipi uchun xom ashyo tanlash va asoslash.
2. Yigirish sistemasi va texnologik uskunalar zanjirini tanlash.
3. Loyihalanayotgan ip uchun yigirish rejasi parametrlarini hisoblash va asoslash.
4. Texnologik o'timlar bo'yicha FVK, IUK, UFK koeffitsientlarini tanlash, amaliy va hisobiy unumdorliklarni aniqlash.
5. Qaytimlar, chiqindilar, xomaki maxsulot va ip chiqishini asoslash.
6. O'timlar bo'yicha pakovkalar massasini hisoblash.
7. Loyiha topshirig'iga ko'ra soatbay vazifani aniqlash, mashinalar sonini hisoblash, korrektirovka qilish, kengaytirilgan yigirish rejasini tuzish.
8. Maxsus qism topshirig'ini bajarish.
9. Loyihaning texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarini ishlab chiqish.
10. Mehnat muxofazasi topshirig'ini bajarish.

## I. TEXNOLOGIK QISM

### 1.1 Qurilish nuqtasini tanlash va asoslash

Yangi fabrikalarni qurishda jamiyat taraqqiyoti, aholining o'sish darajasi, gazlamalarga extiyoji hisobga olinadi. Fabrikani qurish uchun joy tanlash asosan ishlab chiqarish korxonalarini bir tekis joylashtirish va fabrikalarni xom – ashyo, yoqilgi, elektr energiyasi manbalari, istemolchilarga yaqin joyga qurish nazarda tutilishi kerak. Fabrikaning qurilish joyini to'g'ri tanlash uchun quyidagi omillarga etibor berish zarur:

a) **transport masalasi** – fabrika temir yul yoqasiga, xech bo'lmasa unga yaqin joyga qurilishi kerak. Bunday joy tanlashdan maqsad xom – ashyo va tayyor mahsulot tashishni osonlashtiradi.

b) **issiqlik va elektr energiyasi** – yangi quriladigan fabrikalarni yoqilg'i va elektr energiyasi bilan taminlash juda muhim rol o'ynaydi.

v) **ishchi kuchi** – qurilish joyini tanlashda shu joydagi va yaqin atrofdagi ish bilan band bo'lmagan ishga yaroqli kishilar soni xisoblab ko'riladi.

g) **suv bilan taminlash va kanalizatsiya** – har bir korxonani eng oldin suv bilan taminlash zarur. Ishlab chiqarish va xo'jalik maqsadlari uchun, turarjoylarni toza suv bilan taminlash uchun ancha ko'p miqdorda suv talab qilinadi.

d) **qurilish materiallari** – fabrika quriladigan joylar qurilish materiallarining mavjudligi yoki boshqa joylardan tashib kelishi uchun transport vositalari bo'lishi, fabrika qurish uchun joy tanlashning muhim shartlaridan biridir.

Yuqoridagilarni hisobga olib, loyihada qurilish nuqtasi sifatida Toshkent viloyatining Zangi ota tumanini qabul qilamiz. Zangi ota tumani viloyatning shimoliy g'arbini egalagan. 1943 yil 18 mayda tashkil etilgan (1992 yil maygacha Kalinini tumani deb atalgan). Zangi ota tumanining markazi Keles shaharchasi. Tuman maydoni  $0,22 \text{ km}^2$ . Zangi ota tumanining aholisi 160,6 minga yeti. Tuman hududida Bo'zsuv, Zax, Jo'n, Anhor, To'laariq, Keles kanallari bor [3].

Sanaot qishloq xojaligi maxsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan. 10 dan ziyot ishlab chiqatish korxonasi, 20 ta qo'shma korxona, 430 kichik va xususiy korxonalar ishlab turibdi. AQSH Isroil davlatlari bilan birgalikda, aroq, shampan

vinosi, sharbatli ichimliklar, O'zbekiston-Germnaiya hamkorligida "Landertexnika-Toshkent", "Moral125" kombayn ishlab chiqaradigan qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Zangi ota tumanini yuqoridagi ko'rsatkichlarga to'g'ri kegani uchun ushbu tumani loyxada qurulish nuqtasi qilib tanlab oladim.

## Gazlamaning texnik ko'rasatkichlari

Jadval №1

| Mato nomi        | Artikul | Mato eni sm | Ipning yo'g'onligi, teks |         |       | Iplar soni |          | 10 sm matodagi iplpr soni |                 | Ipning ishlatilishi % |                    |
|------------------|---------|-------------|--------------------------|---------|-------|------------|----------|---------------------------|-----------------|-----------------------|--------------------|
|                  |         |             | Tanda                    | Arqoq   | Milki | jami       | milkdagi | R <sub>t</sub>            | R <sub>ar</sub> | a <sub>tan</sub>      | A <sub>arqoq</sub> |
| 1                | 2       | 3           | 4                        | 5       | 6     | 7          | 8        | 9                         | 10              | 11                    | 12                 |
| Ko'ylak bop mato | 1413    | 90          | 14                       | 16,5 gr | 14gr  | 2418       | 48       | 266                       | 216             | 5                     | 6                  |

| Berdo |                                            |      | Toʻqilishi | Stanok turi | Gazlama zichligi | Chiqidilar %    |                 | 100 p.m. gazlama uchun sarf boʻladigan ip miqdori |                 |
|-------|--------------------------------------------|------|------------|-------------|------------------|-----------------|-----------------|---------------------------------------------------|-----------------|
| Nomer | 1 ta tishga toʻgʻri keladigan tishlar soni |      |            |             |                  | Tanda ipi uchun | Arqoq ipi uchun | Tanda ipi uchun                                   | Arqoq ipi uchun |
|       | fon                                        | milk |            |             |                  |                 |                 |                                                   |                 |
| 13    | 14                                         | 15   | 16         | 17          | 18               | 19              | 20              | 21                                                | 22              |
| 125   | 2                                          | 4    | Polotno    | AT          | 78               | 0,63            | 3,24            | 3,538                                             | 3,484           |

## **1.2. Gazlama tavsifi**

To'quvchilik sanoatida ishlab chiqarilayotgan gazlama turlari ichida ip gazlamalari alohida o'rin egallaydi. Ularning asosiy qismi klassik paxta tolasidan ishlab chiqarilgan turlar tashkil qiladi.

Shuningdek, paxta tolasining viskoza, lavsan, nitron tolalari bilan aralashmasidan olinadigan gazlamalar ham keng tarqalgan. Har yili ishlab chiqariladigan ip gazlamalarning (paxta tolali gazlamalar) 10 – 12 %, yangi tuzilishdagi va pardoqlashdagi gazlamalar hisobiga o'zgaradi.

Ip gazlamalar karda, qayta taralgan yoki apparat yigirish usulida olingan turli tuzulishdagi (yakka, pishirilgan, shakldor, aralash tolali va sh.o'.) va chiziqli zichligi 5,88 dan 263,2 teks gacha bo'lgan iplardan ishlab chiqariladi.

Ko'ylakbop gazlamalar ip gazlamalarning assortimentida eng katta va ko'p xildagi gazlamalardan tashkil topgan. U to'rt guruhchaga bo'linadi: a) yozgi; b) mavsumiy; v) qishgi; g) sun'iy ipakni qo'shib ishlab chiqarilgan. Yozgi va mavsumiy ko'ylakbop gazlamalar assortimenti hamisha yangi turlari ishlab chiqariladi.

Ko'ylakbop eng sifatli nafis gazlamalarda qayta tarash iplari ishlatiladi. Gazlamaning tashqi ko'rinishini va xususiyatini yaxshilash uchun paxta ipiga kimyoviy tola yoki iplar qo'shiladi. Ko'ylakbop gazlama yuza zichligi mato turiga qarab har xil bo'ladi.

Ko'ylakbop mato turiga quydagilar kiradi- batis, markizet, mayya, volta, vual, paplin, shatlanka va h.k [5].

### 1.3. Xom ashyoni tanlash va asoslash

Ipning sifati va fizik-mexanik ko'rsatkichlari tolaning xossalariga bevosita bog'liq: tola qancha sifatli bo'lsa, undan ishlab chiqariladigan ipning sifati ham shuncha yuqori bo'ladi. Shuning uchun ma'lum yo'g'onlikdagi ip olish uchun shunday tola tanlash kerakki, ishlab chiqarilgan ipning sifat ko'rsatkichlari standartlarga to'liq javob bergani holda tannarxi arzon bo'lishi kerak.

*Xalqali qayta tarash to'quv ipining sinflari bo'yicha fizik-mexanik ko'rsatkichlari*

**USTER STATISTICS 2013**

Jadval №2

| Ip asrtementi |      |      | Pishiqligi<br>RH,sN/teks |      |      | RH bo'yicha<br>cV % |     |     |     |      | Buramlar soni |      |      |
|---------------|------|------|--------------------------|------|------|---------------------|-----|-----|-----|------|---------------|------|------|
| Ne            | Nm   | Tex  | 5%                       | 50%  | 95%  | 5%                  | 25% | 50% | 75% | 95%  | 5 %           | 50%  | 95%  |
| 1             | 2    | 3    | 4                        | 5    | 6    | 7                   | 8   | 9   | 10  | 11   | 12            | 13   | 14   |
| 3,6           | 61,0 | 64,4 | 20,9                     | 17,3 | 13,9 | 6,9                 | 7,6 | 8,3 | 9,2 | 10,0 | 771           | 1536 | 3121 |

| 100 metr ipdagi nuqsonlar (ko'pi bilan) dona |     |     |     |     |                 |     |     |     |     |         |     |     |     |     |
|----------------------------------------------|-----|-----|-----|-----|-----------------|-----|-----|-----|-----|---------|-----|-----|-----|-----|
| Ingichga joylar                              |     |     |     |     | Yo'g'on joylar, |     |     |     |     | Nepslar |     |     |     |     |
| 5%                                           | 25% | 50% | 75% | 95% | 5%              | 25% | 50% | 75% | 95% | 5%      | 25% | 50% | 75% | 95% |
| 15                                           | 16  | 17  | 18  | 19  | 20              | 21  | 22  | 23  | 24  | 25      | 26  | 27  | 28  | 29  |
| 1                                            | 2   | 4   | 8   | 16  | 13              | 21  | 38  | 66  | 122 | 31      | 52  | 95  | 158 | 260 |

[6]

### Tipli saralanma tanlash.

Karda yigirish sistemasida yigiriladigan 16,5gr teks ipi uchun quyidagi tipli saralanma tavsiya etiladi GOST 15958-70.

Jadval №3

| CHiziqliy zichlik,<br>teks | Ipning nomer | Tipli saralanma | Ilova |
|----------------------------|--------------|-----------------|-------|
| 1                          | 2            | 3               | 4     |
| 16,5                       | 60,6         | 4 I- 100 %      | -     |

[8]

### Paxtani seleksiya navini tanlash

4 tip paxtaning quyidagi seleksion navlari mavjud: Sulton, Oqdaryo 6, Andijon 35, Namangan 77 va hokazolar kiradi. Seleksion navini tanlashda tanlangan paxta navi kasallikka chidamliligi , serxosilligi va erta pishishiga qarab e'tibor berish kerak. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda tipli saralanma uchun O'zbekiston Respublikasining 2015 yil hosilidan olingan o'rta tolali paxta tolasining 4 – tipga oid g'o'za navlaridan Sulton navini qabul qilamiz.

Jadval №4

| Tipi | Seleksion navi<br>VARIETU | MIC mikroneyr UNIT | Shtapel uzunligi<br>cod STAPLE | UHML yuqori o'rtacha<br>uzunlik<br>Dyum *100<br>Inch * 100 | STR solishtirma uzilish<br>kuchi<br>gk/teks gf/teks | UI bir hiliq indeksi<br>% |
|------|---------------------------|--------------------|--------------------------------|------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------|---------------------------|
| 1    | 2                         | 3                  | 4                              | 5                                                          | 6                                                   | 7                         |
| 4    | Sulton                    | 4,60               | 35,5                           | 111,4                                                      | 31,1                                                | 83,1                      |

| RD aks ko'rsatish<br>koeffitsienti<br>% | b Sarg'ishlik darajasi<br>% | ELONG uzilishdagi uzayish<br>% | LI AF lif kodi | SFI kalta tolalar indeksi | SCI yigiruvchanlik indeksi | CSP ipning hsobiy pishiqiligi |
|-----------------------------------------|-----------------------------|--------------------------------|----------------|---------------------------|----------------------------|-------------------------------|
| 8                                       | 9                           | 10                             | 11             | 12                        | 13                         | 14                            |
| 77,3                                    | 8,9                         | 8,4                            | 1,9            | 5,8                       | 138,89                     | 2168,60                       |

### ***Tolaning sifat ko'rsatkichlaridan foydalanib CSP qiymatini hisoblaymiz***

O'zbekiston to'qimachilik korxonalari tayyor mahsulotlarni jahon andozalariga moslab, raqobatbardosh qilib ishlab chiqarish vazifasini to'la bajarish uchun to'qimachilik sanoati taraqqiyot etgan mamlakatlar korxonalari amaliyotida qo'llaniladigan usullardan foydalanish lozim. Paxta tolasi xossa ko'rsatkichlarini ekspress (tezkor) aniqlashda HVI sinov qurilmasidan keng foydalaniladi. Xozirgi paytda paxta tolasi sinovi aynan shu uskunada o'tkazilib, natijalardan biri sifatida CSP ko'rsatkichi qayd etiladi. Firma CSP ni hisoblash uchun formulani ishlab chiqqan (1). Uning yordamida ip pishiqligini prognoz qilish mumkin. Paxta tolasi Sifat markazlari aynan shu formulalardan foydalanadilar.

$$CSP = -741,08 + 8,24 \times R_t - 97,8 \times M + 850,9L + 15,20 \times UI + 14,84 \times Rd - 27,87 \times b - 5,02 \text{ Leaf}$$

CSP qiymatini hisoblashda HVI sinov tizimi ko'rsatkichlaridan foydalanib, quyidagi formulalarni ham qo'llash mumkin.

Qayta tarash ipi uchun: [8]

$$CSP = \left[ 165 \sqrt{\frac{LR_T}{M}} + 590 - 13N_e \right] \cdot \left[ 1 + \frac{17}{100} \right] \quad (1)$$

Bu erda:

L- tolaning yuqori o'rtacha uzunligi, mm;

Tolaning uzunligi dyuymda berilgan. Sulton seleksion navning tolasi uzunligi 111,4 dyuym $\times$ 100 deb berilgan. Uning mm lardagi uzunligini topish uchun, jadval ko'rsatkichini 100 ga bo'lib, 25,4 ga ko'paytirish kerak. YA'ni

$$L = 1,114 \times 25,4 = 28,3 \text{ mm};$$

R<sub>T</sub>- tolaning nisbiy uzish kuchi, gk/teks; 31,1 gk/teks;

M- mikroneyr, mg/dyuym; 4,60;

N<sub>e</sub>-ipning ingliz tizimidagi nomeri; 60,6;

$$CSP = \left[ 165 \sqrt{\frac{28,3 \cdot 31,1}{4,60}} + 590 - 13 \cdot 60,6 \right] \cdot \left[ 1 + \frac{17}{100} \right] = [165 \cdot 13,83 + 590 - 780] \cdot 1,17 = 244,758$$

CSP ning Sifat markazi ko'rsatgan qiymati (-jadvalga muvofiq) 2168,60ga teng.

Demak, CSP ning jadvaliy qiymati 2168,60 uning hisobiy qiymati 2447,75 dan kichikligi uchun, xom ashyo to'g'ri tanlangan deb hisoblanadi.

Hom ashyoning berilgan nomeri ( $N_e$ ) dagi ipga qo'yilgan talablarni qondira olishi ipning uzishdagi uzunligi deb ataluvchi pishqlik  $R_{km}$  ni hisoblab tekshiriladi.

Ipning pishqligi  $R_{km}$  HVI da aniqlangan tolalar ko'rsatkichlaridan foydalanib quyidagicha hisoblanadi.

$$R_{km} = \left[ 1,1 \sqrt{\frac{L \cdot R_T}{M}} + 4,0 - 13 \frac{N_e}{150} \right] \cdot \left[ 1 + \frac{17}{100} \right], \text{ gk/teks} \quad (2)$$

Berilgan Sulton tola ko'rsatkichlaridan foydalanib  $R_{km}$  ni aniqlaymiz.

$$R_{km} = \left[ 1,1 \sqrt{\frac{28,3 \cdot 31,1}{4,60}} + 4,0 - 13 \frac{60,6}{150} \right] \cdot \left[ 1 + \frac{17}{100} \right] = [1,1 + 13,8 + 4 - 5,25] \cdot 1,17 = 16,3 \text{ gk/teks};$$

Yigirilayotgan ipimiz pnevmomexanik usulda olinayotganligi uchun olingan qiymatni 0,85 koeffitsientiga ko'paytiramiz.

$$R_{km} = 0,9807 \cdot 16,3 = 15,98 \text{ gk/teks};$$

Bu ko'rsatkich ipning me'yoriy ko'rsatkichlar bilan solishtiriladi. Me'yorlar USTER STATISTICS jadvallarida keltirilgan. Unda hisoblangan  $R_{km.x.} > R_{km.j}$  bo'lishi kerak, ya'ni ip sifati (2-jadval) 5, 25, 50, 75, 95% sinflarining birortasidan katta bo'lsa, xom ashyo to'g'ri tanlanganligi asoslanadi.

Bizning misolda  $R_{km.xis} = 15,98 \text{ gk/teks} > 15,9 \text{ gk/teks} = R_{km.j}$ . 25% li sinfnining ko'rsatkichi. SHuning uchun tanlangan xom ashyo sulton seleksion navli paxta tolasini loyihada qabul qilish mumkin.

(2) – formula bo'yicha topilgan uzilish uzunligi  $R_{km} = 16,3 \text{ gk/teks}$  dan sN/teksda o'lchanadigan ipning nisbiy uzish kuchi  $R_{ip}$  ga o'tish uchun

$$R_{ip} = 0,9807 \cdot R_{km} \text{ sN /teks formulasidan foydalanamiz.}$$

$$R_{ip} = 0,9807 \cdot R_{km} = 0,9807 \cdot 16,3 = 15,98 \text{ sN /teks.}$$

$$R_{km.xis} = 15,98 \text{ sN/teks} > R_{km.jad} = 17,3 \text{ sN/teks}$$

sharti bajarildi, ya'ni Uster statistiss 2013 bo'yicha ip sifat sinfi 50 dan katta demak, xom ashyo to'g'ri tanlangan.

### **Xulosa:**

Tanlagan tipli saralanma 16,5gr teks arqoq ipi ishlab chiqarish uchun barcha texnologik ko'rsatkichlarini qondiradi.

#### **1.4. Ip yigirish sistemasini tanlash**

Yigirish uchun tanlangan mashinalar ularda bajariladigan texnologik jarayonlar majmuasi yigirish sistemi deb ataladi. Yigirishda asosan 3 ta sistema karda, qayta tarash va aparat sistemalari mavjud.

Berilgan loyihaga asoslanib 16,5gr teks arqoq ipini yigirish uchun qayta tarash yigirish sistemasini xalqali usulini tanlaymiz, bundan tashqari "Truetzschler" firmasi uskunalari berilganligi uchun uning uskunalari tizimidan foydalanamiz.

#### **Texnologik uskunalari zanjirini tanlash**

Texnologik uskunalarni tanlashdan fan taraqqiyoti texnika va texnologiyani rivojlanishi yo'nalishlarini va to'qimachilik mashinasozligini yo'nalishlarini yaxshi bilish kerak.

Jadval №5

| «Marzoli»<br>tavsiyasi | «Truetzschler»<br>tavsiyasi | «Rieter»<br>tavsiyasi | Loyihada qabul<br>qilamiz |
|------------------------|-----------------------------|-----------------------|---------------------------|
| B12N                   | Blendomat BO-A              | Uniflok A 11          | Blendomat BO-A            |
| B39N                   | SP-MF                       | B 11                  | SP-MF                     |
| B142N                  | MX-I-6                      | Unimix B 70           | MX-I-6                    |
| B37N                   | Clenomet CL-C4              | Uniflex B 60          | Clenomet CL-C4            |
| B139N                  | Securomat Sp-F              | Aerofeed A70          | Securomat Sp-F            |
| C601SN                 | Diricfeed                   | C-60                  | Diricfeed                 |
| UMTN                   | TC-07                       | SB-D-15               | TC-07                     |
| LW2N                   | TD-03                       | UNilab E32            | TD-03                     |
| CM500N                 | TSL-1                       | E75,E65               | TSL-1                     |
| FTN/FTDN               | HSR-1000                    | RSB-D-35              | HSR-1000                  |
| MPTN/MP1N              | Zinser-670                  | Fluier F 15           | Zinser-670                |
|                        | Zinser-351                  | G 33                  | Zinser-351                |

## Tanlangan mashinalarning texnologik tavsifi «Truetzschler» firmasi

**Jadval №6**

| t/r | Mashinalar nomi                       | Markasi          | Ishlatiladigan tolanning uzunligi mm gacha | Maxsulotlarning chizikchi zichligi, T (N <sub>c</sub> ) | CHikaruvchi imchi organ tezligi |         | CHuzish mikdori E | Buramlar mikdori, bur/m | Unumdorligi, kg/soat | Sarflanadigan elektr kuvvati, Kvt | Mashina ulchamlari |             | CHiqaruvchi organlar soni              |
|-----|---------------------------------------|------------------|--------------------------------------------|---------------------------------------------------------|---------------------------------|---------|-------------------|-------------------------|----------------------|-----------------------------------|--------------------|-------------|----------------------------------------|
|     |                                       |                  |                                            |                                                         | n min <sup>-1</sup>             | V m/min |                   |                         |                      |                                   | Eni mm             | Uzunligi mm |                                        |
| 1   | 2                                     | 3                | 4                                          | 5                                                       | 6                               | 7       | 8                 | 9                       | 10                   | 11                                | 12                 | 13          | 14                                     |
| 1   | Avtomatik toy titgich                 | Blendomat BO-A   | 60                                         | -                                                       | -                               | -       | -                 | -                       | 1500                 | 4,0-6,0                           | 5164               | 11300-51130 | -                                      |
| 2   | Kup funk-siyali ajrat-kich            | SP-MF            | 60                                         | -                                                       | -                               | -       | -                 | -                       | 1500                 | 9,0                               | 1664               | 4485        | -                                      |
| 3   | 6-bunkerli aralashtiruvchi mashina    | MX-I-6           | 60                                         | -                                                       | -                               | -       | -                 | -                       | 600                  | 6,0                               | 2264               | 4633        | -                                      |
| 4   | 3-barabanli tozalagich                | Clenomat CL-S 4  | 60                                         | -                                                       | -                               | -       | -                 | -                       | 800                  | 9,1-11                            | 2664               | 2995        | -                                      |
| 5   | Begona jismlar-dan tozalash mashinasi | Securomat SP-F   | 60                                         | -                                                       | -                               | -       | -                 | -                       | 1500                 | 9,0                               | 1664               | 4485        | -                                      |
| 6   | Tarash mashinasi                      | <i>Diricfeed</i> | 60                                         | 3,0-20 kteks                                            | -                               | -       | -                 | -                       | 150                  | 12-14                             | 2800               | 8013        | 1                                      |
| 7   | Piltalash mashinasi<br>0 utim         | TC-07            | 60                                         | 1,5-7,0 kteks                                           | -                               | 1000    | 4,0-11,0          | -                       | -                    | 10,5                              | 2550               | 9330        | 1                                      |
| 8   | Pilta birlashtiruvchi mashina         | TD-03            | 60                                         | 140 kteks                                               | -                               | 70-130  | 1,4-2,3           | -                       | 460                  | 13,5                              | 7275               | 7280        | 1                                      |
| 9   | Qayta tarash                          | TSL-1            | 60                                         | 3,0-6,0 kteks                                           | 500                             | -       | 8,8-22,5          | -                       | 74                   | 4,5                               | 2884               | 8372        | 1                                      |
| 10  | Piltalash mashinasi<br>I utim         | HSR –1000        | 60                                         | 1,25-7,0 kteks                                          | -                               | 1000    | 4,5-11,6          | -                       | -                    | 7,5                               | 2605               | 8200        | 1                                      |
| 11  | Piliklash mashinasi                   | Zinser-670       | 60                                         | 170 – 1450 teks                                         | 1500                            | 50      | 4-20              | 10-100                  | -                    | 31                                | 3100               | 17665       | 192 ta gacha (seksiyada 12 yoki 16 ta) |
| 12  | Yigirish mashinasi                    | Zinser -351      | 60                                         | 107 – 4,0 teks                                          | 25000                           | -       | 8-80              | 100-3500                | -                    | 38,0                              | 1000               | 40588       | 192-1680(seksiyada 24 ta)              |

### 1.5. Yigirish rejasini tanlash va asoslash

Ip yigiruv rejasini yigiruv korxonasining asosiy texnik hujjati bo'lib, unga yigiruv fabrikasining hamma bosqichlaridagi mashinalarning asosiy texnik ko'rsatkichlari kiradi.

Yigirish rejasini o'z ichiga mashinalardagi hamma parametrlarni o'z ichiga olgan ya'ni yarim tayyor maxsulotlar va ip olishdagi texnologik jarayonlar bilan bog'langan. Yigirish rejasida maxsulotlarning yo'g'onliklari, qo'shish soni, bosqichlar bo'yicha cho'zish miqdori, pishitish darajasi va pishitish koeffitsientlari, asosiy ishchi organlarning aylanish tezliklari, mashinalarning nazariy maxsuldorliklari xamda mashinalardan foydalanish koeffitsientlari kiradi.

Yigirish rejasida har bir olingan ko'rsatkichlarni asoslash kerak. Har bir ko'rsatkichni tanlashda maxsus ma'lumotnomalardan, ilmiy tekshirish institutlarning tadqiqot ishlari natijalaridan va ishlayotgan ilg'or fabrikalarning tajribalaridan foydalaniladi.

#### «Muruvat-tek» Gurlan korxonasining yigirish rejasini

Jadval №7

| № | Mashinalar-<br>ning nomi va<br>markasi | CHiqayotgan maxsulot<br>Teks, kteks | Qo'shilish soni<br>d | CHo'zish soni<br>E | Pishitish  |          | CHiqaruvchi<br>ishchi organ.<br>tezligi |            | An<br>Kg/s | FVK  |
|---|----------------------------------------|-------------------------------------|----------------------|--------------------|------------|----------|-----------------------------------------|------------|------------|------|
|   |                                        |                                     |                      |                    | $\alpha_t$ | K<br>b/m | n<br>min <sup>-1</sup>                  | V<br>m/min |            |      |
| 1 | Tarash<br>TC 03                        | 4916                                | -                    | -                  | 36,4       | 900      | -                                       | 150        | 42,1       | 0,95 |
| 2 | Pitalash "0" o'tim<br>TD 03            | 4916                                | 6                    | 6                  | -          | -        | -                                       | 500        | 110,8      | 0,75 |
| 3 | Pilta birlashtirish<br>LW 2 N          | 70338                               | 24                   | 1,67               | -          | -        | -                                       | 90         | 264,0      | 0,70 |
| 4 | Qayta tarash<br>CM 500                 | 4916                                | 8                    | -                  | -          | -        | -                                       | 320        | 0,85       | 34,7 |
| 5 | Pitalash I-o'tim<br>TD 03              | 4916                                | 6                    | 6                  | -          | -        | -                                       | 400        | 88,6       | 0,75 |
| 6 | Piliklash<br>Zinzer 670                | 608                                 | 1                    | 8,8                | -          | -        | -                                       | 1100       | 74,6       | 0,80 |
| 7 | Yigirish<br>Zinzir 351                 | 16,38                               | 1                    | 37,13              | 36,4       | 900      | -                                       | 16400      | 21,5       | 0,97 |

## 1.6. O'timlar bo'yicha chiqayotgan mahsulot yo'g'onligi va cho'zish miqdorini asoslash

### 1. Tarash bo'limi

- |                                   |                                     |
|-----------------------------------|-------------------------------------|
| 1. Texnik xarakteristika bo'yicha | $T_p=3-20$ kteks; $Ne=0,196-0,0295$ |
| 2. «Muruvat-teks» QK ko'rsatkichi | $T_p=4,9$ kteks; $Ne=0,12$          |
| 3. Loyihada qabul qilamiz         | $T_p=5,0$ kteks; $Ne=0,118$         |

### 2. Piltalash «0» o'tim

- |                                   |                                                      |
|-----------------------------------|------------------------------------------------------|
| 1. Texnik xarakteristika bo'yicha | $T_p = 1,5-7,0$ kteks; $Ne=0,393-0,084$ ;<br>$d=4-8$ |
| 2. «Muruvat-teks» QK ko'rsatkichi | $T_p = 4,9$ kteks; $Ne=0,12$ ; $d= 6$                |
| 3. Loyihada qabul qilamiz         | $T_p = 5,0$ kteks; $Ne=0,118$ ; $d= 8$               |

$$E = \frac{T_{kir}}{T_{chiq}} \cdot d = \frac{5,0}{5,0} \cdot 8 = 8,0$$

### 3. Pilta birlashtirish o'tim

- |                                   |                                               |
|-----------------------------------|-----------------------------------------------|
| 1. Texnik xarakteristika bo'yicha | $T_{xol} = 140$ kteks; $Ne=0,030$ ;<br>$d=24$ |
| 2. «Muruvat-teks» QK ko'rsatkichi | $T_{xol} = 70$ kteks; $Ne=0,084$ ; $d= 24$    |
| 3. Loyihada qabul qilamiz         | $T_{xol} = 70$ kteks; $Ne=0,084$ ; $d= 24$    |

$$E = \frac{T_{kir}}{T_{chiq}} \cdot d = \frac{7,0}{7,0} \cdot 24 = 1,71$$

### 4. Qayta tarash o'tim

- |                                   |                                                 |
|-----------------------------------|-------------------------------------------------|
| 1. Texnik xarakteristika bo'yicha | $T_p = 3-6$ kteks; $Ne=0,196-0,98$ ;<br>$d=4-8$ |
| 2. «Muruvat-teks» QK ko'rsatkichi | $T_p = 4,9$ kteks; $Ne=0,12$ ; $d= 6$           |
| 3. Loyihada qabul qilamiz         | $T_p = 5,0$ kteks; $Ne=0,118$ ; $d= 8$          |

$$E = \frac{T_{kir}}{T_{chiq}} - \left[ \frac{100 \cdot 17}{100} \right] = \frac{70 \cdot 8}{5,0} \cdot \left[ \frac{100 - 17}{100} \right] = 92,96$$

### 5. Piltalash «I» o'timi

- |                                   |                                                      |
|-----------------------------------|------------------------------------------------------|
| 1. Texnik xarakteristika bo'yicha | $T_p = 1,5-7,0$ kteks; $Ne=0,393-0,084$ ;<br>$d=4-8$ |
| 2. «Muruvat-teks» QK ko'rsatkichi | $T_p = 4,9$ kteks; $Ne=0,12$ ; $d= 6$                |

3. Loyihada qabul qilamiz

$$T_p = 5,0 \text{ kteks}; Ne=0,118; d= 8$$

$$E = \frac{T_{kir}}{T_{chiq}} \cdot d = \frac{5,0}{5,0} \cdot 8 = 8,0$$

#### 6. Piliklash o'timi

1. Texnik xarakteristika bo'yicha

$$T_{pilik}=170-1450 \text{ teks}; Ne=3,47-4,06$$

2. «Muruvat-teks» QK ko'rsatkichi

$$T_{pilik} = 60,8 \text{ teks}; Ne=98,2$$

3. Loyihada qabul qilamiz

$$T_{pilik} = 600 \text{ teks}; Ne=98,3$$

$$E = \frac{T_{kir}}{T_{chiq}} = \frac{5000}{600} \cdot 1 = 8,3 \text{ kteks}$$

#### 7. Yigirish o'timi

1. Texnik xarakteristika bo'yicha

$$T_{ip}=4,0-107 \text{ teks}; Ne=14,7-5,51$$

2. «Muruvat-teks» QK ko'rsatkichi

$$T_{ip} = 16,38 \text{ teks}; Ne=36,01$$

3. Loyihada qabul qilamiz

$$T_{ip} = 16,5 \text{ teks}; Ne=35,75$$

$$E = \frac{T_{kir}}{T_{chiq}} \cdot d = \frac{500}{16,5} \cdot 1 = 36,36$$

### 1.7. Pishitish koeffitsienti va buramlar sonini aniqlash

Har bir yo'g'onlikdagi ipni pishitish ya'ni buramlar sonini aniqlash uchun pishitish koeffitsienti tanlanadi. Bu koeffitsient yigirish sistemasiga tanda yoki arqoqligiga tolaning shtapel uzunligiga qarab ma'lumotnomadan qabul qilinadi.

### Pilik va ipdagi buramlar sonini aniqlash va asoslash

$L_{SHT}=36,5 \text{ mm}$ ;  $T=600 \text{ teks}$  bo'lsa pilik uchun pishitish koeffitsienti  $\alpha_T=8,53$  ga teng.

$$K = \frac{\alpha_m \cdot 100}{\sqrt{T_{pil}}} = \frac{8,53 \cdot 100}{\sqrt{600}} = 34,9 \text{ br / m}$$

pilikning 1 dyuymdagi buramlar soni

$$a_N = \frac{\alpha_T}{0,3162} = \frac{8,53}{0,3162} = 26,97$$

$$a_e = 0,033 \cdot a_N = 0,033 \cdot 26,97 = 0,890$$

$$TPI = a_e \cdot \sqrt{Ne} = 0,863 \cdot \sqrt{1,01} = 0,867 \text{ b/d}$$

$$K = 39,38 \cdot TPI = 39,38 \cdot 0,867 = 34,14 \text{ b/m}$$

Ipdaagi buramlar soni

$L_{\text{SHT}}=36,5 \text{ mm}$ ;  $T_{\text{ip}}=16,5 \text{ teks}$  bo'lsa qayta tarash ipi uchun pishitish koeffitsienti  $\alpha_T=31,1$  ga teng.

$$K = \frac{\alpha_m \cdot 100}{\sqrt{T_{\text{plt}}}} = \frac{31,1 \cdot 100}{\sqrt{16,5}} = 777,5 \text{ br / m}$$

pilikning 1 dyuymdagi buramlar soni

$$a_N = \frac{\alpha_T}{0,316} = \frac{31,1}{0,316} = 98,4$$

$$a_e = 0,033 \cdot a_N = 0,033 \cdot 98,4 = 3,24$$

$$TPI = a_e \cdot \sqrt{Ne} = 0,863 \cdot \sqrt{36} = 3,24 \cdot 6 = 19,41 \text{ b/d}$$

$$K = 39,38 \cdot TPI = 39,38 \cdot 19,41 = 765,36 \text{ b/m}$$

## 1.8. O'timlar bo'yicha chiqaruvchi organlari tezligini asoslash

Har bir mashinaning texnik tasnifida asosiy ishchi organlarining tezligi keltirilgan. Hamma tanlangan tezliklar asoslangan bo'lishi va ilg'or korxonalar ko'rsatkichidan kam bo'lmasligi kerak. Odatda mashinalarning nazariy ish unimdorligi tanlab asoslanib olinadi. Keyin ishlab chiqaruvchi organlarning aylanish tezligi topiladi.

### 1. Tarash bo'limi

- |                                   |                           |
|-----------------------------------|---------------------------|
| 1. Texnik xarakteristika bo'yicha | $A_n = 150 \text{ kg/s}$  |
| 2. «Muruvat-teks» QK ko'rsatkichi | $A_n = 42,1 \text{ kg/s}$ |
| 3. Loyihada qabul qilamiz         | $A_n = 100 \text{ kg/s}$  |

$$n_{\text{ajr.bar}} = \frac{A_n \cdot 1000^2}{\pi \cdot d_{\text{ajr.bar}} \cdot 60 \cdot T_{\text{hil}} \cdot e} = \frac{100 \cdot 1000}{3,14 \cdot 0,706 \cdot 60 \cdot 5,0 \cdot 2,0} = 75,1 \text{ min}^{-1}$$

### 2. Pitalash «0» o'timi

- |                                   |                          |
|-----------------------------------|--------------------------|
| 1. Texnik xarakteristika bo'yicha | $V = 1000 \text{ m/min}$ |
| 2. «Muruvat-teks» QK ko'rsatkichi | $V = 500 \text{ m/min}$  |
| 3. Loyihada qabul qilamiz         | $V = 800 \text{ m/min}$  |

$$n_{sid} = \frac{V}{\pi \cdot d_{sil}} = \frac{800}{3,14 \cdot 0,038} = 6704,6 \text{ min}^{-1}$$

### 3. Pilta birlashtirish bo'limi

1. Texnik xarakteristika bo'yicha  $A_n = 130 \text{ kg/s}$
2. «Muruvat-tekst» QK ko'rsatkichi  $A_n = 90 \text{ kg/s}$
3. Loyihada qabul qilamiz  $A_n = 90 \text{ kg/s}$

$$n_{sid} = \frac{V}{\pi \cdot d_{sil}} = \frac{90}{3,14 \cdot 0,038} = 6704,18 \text{ min}^{-1}$$

### 4. Qayta tarash o'timi

1. Texnik xarakteristika bo'yicha  $N = 500 \text{ min}^{-1}$   $A_n = 74$
2. «Muruvat-tekst» QK ko'rsatkichi  $N = 320 \text{ min}^{-1}$   $A_n = 34,7$
3. Loyihada qabul qilamiz  $N = 323 \text{ min}^{-1}$   $A_n = 58$

$$E = \frac{A_n \cdot 100^2}{F \cdot a \cdot 60 \cdot T_x} - \left[ \frac{100}{100 - 17} \right] = \frac{58 \cdot 1000^2}{5,9 \cdot 8 \cdot 60 \cdot 70} \cdot \left[ \frac{100}{100 - 17} \right] = 351$$

### 5. Pitalash «I» o'timi

1. Texnik xarakteristika bo'yicha  $V = 1000 \text{ m/min}$
2. «Muruvat-tekst» QK ko'rsatkichi  $V = 500 \text{ m/min}$
3. Loyihada qabul qilamiz  $V = 650 \text{ m/min}$

$$n_{sil} = \frac{V}{\pi \cdot d_{sil}} = \frac{650}{3,14 \cdot 0,038} = 5447,5 \text{ min}^{-1}$$

### 2. Piliklash o'timi

1. Texnik xarakteristika bo'yicha  $P_{urch} = 1500 \text{ min}^{-1}$
2. «Muruvat-tekst» QK ko'rsatkichi  $P_{urch} = 1100 \text{ min}^{-1}$
3. Loyihada qabul qilamiz  $P_{urch} = 1200 \text{ min}^{-1}$

$$n_{sil} = \frac{P_{urch}}{\pi \cdot d_{sil} \cdot K} = \frac{1200}{3,14 \cdot 0,030 \cdot 34,9} = 365,8 \text{ min}^{-1}$$

### 4. Yigirish o'timi

1. Texnik xarakteristika bo'yicha  $n_{urch} = 22000 \text{ min}^{-1}$
2. «Muruvat-tekst» QK ko'rsatkichi  $n_{urch} = 16400 \text{ min}^{-1}$
3. Loyihada qabul qilamiz  $n_{urch} = 17000 \text{ min}^{-1}$

$$n_{sil} = \frac{P_{urch}}{\pi \cdot d \cdot K} = \frac{17000}{3,14 \cdot 0,022 \cdot 777,5} = 316,5 \text{ min}^{-1}$$

## 1.9.Oʻtimlar boʻyicha mashinalar nazariy unumdorligini

### aniqlash va asoslash

#### 1.Tarash boʻlimi

$$A_n = \frac{\pi \cdot d_{aj.bar} \cdot n_{aj.bar} \cdot 60 \cdot T_{pil} \cdot e}{1000^2} = \frac{3,14 \cdot 0,706 \cdot 75,1 \cdot 60 \cdot 5,0 \cdot 2}{1000} = 100 \text{ kg / s}$$

#### 2.Pitalash «0» oʻtimi

$$A_n = \frac{V \cdot 60 \cdot T_{pil}}{1000^2} = \frac{800 \cdot 60 \cdot 5,0}{1000} = 240 \text{ kg / s}$$

#### 3.Pilta birlashtirish

$$A_n = \frac{V \cdot 60 \cdot T_{xol}}{1000^2} = \frac{90 \cdot 60 \cdot 70}{1000} = 378 \text{ kg / s}$$

#### 4.Qayta tarash

$$A_n = \frac{F \cdot a \cdot n_b \cdot 60 \cdot T_x [100 - Y]}{1000^2 \cdot 100} = \frac{5,9 \cdot 8 \cdot 323 \cdot 60 \cdot 70 [100 - 17]}{1000^2 \cdot 100} = 53,14 \text{ kg / s}$$

#### 5. Pitalash «I» oʻtimi

$$A_n = \frac{V \cdot 60 \cdot T_{pil}}{1000^2} = \frac{650 \cdot 60 \cdot 5,0}{1000} = 195 \text{ kg / s}$$

#### 6.Piliklash oʻtimi

$$A_n = \frac{P_{urch} \cdot 60 \cdot T_{pil}}{K \cdot 1000^2} = \frac{1200 \cdot 60 \cdot 600}{34,9 \cdot 1000} = 1,23 \text{ kg / s } I \text{ ta urchuq uchun}$$

#### 4. Yigirish oʻtimi

$$A_n = \frac{n_{kam} \cdot 60 \cdot T_p}{K \cdot 1000^2} = \frac{15000 \cdot 60 \cdot 16,5}{777,5 \cdot 1000^2} = 0,019 \text{ kg / s } I \text{ ta urchuq uchun}$$

## 16,5 teks arqoq ipini ishlab chiqarishda yigirishning qisqacha rejasi

Jadval №8

| № | O'timlar va mashinalar markasi | CHiqayotgan mahsulotning nomeri, $N_e$ (T, teks) | Qo'shilishlar soni, d | Umumiy cho'zilish miqdori, E | Pishitish                |                         | CHiqaruvchi organlar tezligi |                         | Nazariy unumdorlik, $A_N$ kg/soat |
|---|--------------------------------|--------------------------------------------------|-----------------------|------------------------------|--------------------------|-------------------------|------------------------------|-------------------------|-----------------------------------|
|   |                                |                                                  |                       |                              | $\alpha_T$<br>$\alpha_N$ | (K, b/m)<br>TPI,<br>b/d | V,<br>m/min                  | n,<br>min <sup>-1</sup> |                                   |
| 1 | 2                              | 3                                                | 4                     | 5                            | 6                        | 7                       | 8                            | 9                       | 10                                |
| 1 | Tarash                         | 0,118<br>(5,0)                                   | 1                     | -                            | -                        | -                       | -                            | 75,1                    | 100                               |
